

## AFINADA PISISTRAT TIRANIYASI

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li  
Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi

Norbutayeva Sevinch Tursunpo'lat qizi  
Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

### Annotatsiya

Qadimgi Yunonistondagi Afina shahri eng eng dastlabki sivilizatsiyalardan biridir. Afina quldorlik demokratiyasi o'z davrining davlat boshqaruvidagi demokratik tuzumi bilan shuhrat topgan. Afina xalqi uchun muhim islohotlar o'tkazgan shaxslardan biri bu- Pisistratdir. Uning hukmronligi davrida Afinada ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayot haqida ushbu maqolamizda ko'rib chiqamiz.

**Kalit so'zlar:** Tiraniya, Pisistrat, arxont, demos, Solon, firatriya, diakriylar, ioniyalar.

Afina shahri- O'rta Yunonistonning janubiy-sharqiy qismida joylashgan. Bu shaharning barcha tomoni dengiz va tog'lar bilan o'ralgan. Afina dehqonchilik uchun noqulay edi. Kumush konlari, marmarning mo'l-ko'lligi savdo-hunarmandchilikning taraqqiyotiga yordam beradi. Qulay dengiz gavanlari dengizchilikning rivojlanishiga sabab bo'lgan. Dastlab Afina aholisi kichik qishloqlarda yashagan, keyinchalik esa ular qoyatosh bag'rida joylashgan Afina akropoli markaz bo'lgan bir shahar atrofida birlashdilar. Afinaning qadimgi aholisi ioniyalar, pelastlarga doriylarning ko'chishi ta'sir qilmadi. Bu yerda yunon tilining ioniy shevasida so'zlashadigan qabilalar guruhi to'rt urug' yoki qabila (fil)ga bo'lingan edi. Har bir fil bir necha o'nlab urug'lardan iborat bo'lgan uch firatriyaga bo'lingan edi [Rajabov R. 2009. 257-b.].

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina davlatlarida demokratiya tuzumi qaror topgan bo'lib, uning ildizlari qadimgi Afinaga borib taqaladi. Afina quldorlik demokratiyasini ideallashtirish XIX asrdayoq ko'ringan edi. Bir vaqtlar Gretsiyaning juda mazmunli tarixini yozgan mashhur ingliz tarixchisi J.Grot ana shunday ideallashtirishni boshlab bergan edi. U Afina demokratiyasi dunyoda hozirgacha bo'lgan va bundan keyin bo'ladigan davlatlar ichida eng yaxshi davlat edi, deb hisoblagan. Grotning bu taklifini boshqa tarixchilar ham bilib olgandilar,



uning muxlislari hozir ham bo'lgan Arxaik davrning oxirlarida (er.aw. VI asrda) paydo bo'lgan quldorlik demokratiyasi va quldorlik oligarxiyasi er.avv. V asrda, yani arxaik davrdan keyingi klassik davrda to'la rivoj topdi [Qadimgi dunyo tarixi. 2019. 305-b.].

Afinada mil. avv. VII asrda ijtimoiy qarama-qarshilik shu qadar murakkab ko'rinish oldiki, bundan qonli to'qnashuvlar xavfi kelib chiqadi. Bunday murakkab sharoitlarda yevpatridlar yon bosib Solonni arxont sifatida saylashga majbur bo'ladilar. Unga vaziyatni mo'tadillashtirishdan iborat bo'lgan og'ir vazifani yuklaydilar (mil. avv. 594 yil). Solon islohotlari polis demokratiyasi asosiga tamal toshini qo'ydi, lekin qisqa muddatda urug' tuzumining barcha qoldiqlarini ildizi bilan sug'urib tashlashga hamda zodagonlar hukmronligiga to'la barham bera olmadi. Demos va zodagonlar o'rtasidagi kurash Solon islohotlaridan keyin ham davom etdi, lekin u endilikda yangi mazmun kasb etdi. Solondan so'ng Afinada urug' zodagonlari vakillari boshchilik qilgan uchta siyosiy guruh shakllanadi: Likurg boshchiligidagi pedieylar, Megakl boshchiligidagi paraliylar va Pisistrat boshchiligidagi diakriylar. Ular urug' zodagonlarining manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuzilgan guruhlar edi. Siyosiy guruhlar o'rtasidagi o'tkir kurashlar Pisistrat boshchiligidagi diakriylarning g'alabasi bilan tugadi. U mil. avv. 560- yilda Afinani egallaydi va o'zini polisning oliy hukmdori deb e'lon qiladi. Uning vazifasi o'zining hokimiyati mustahkamligini ta'minlash va uni qo'llab-quvvatlagan ijtimoiy guruhlar va urug' zodagonlarning manfaatlarini himoya qilish edi [Jahon tarixi - Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi. 2020. 117-b.].

Pisistrat dastlab eng muhtoj kichik yer egalariga davlat xazinasidan yordam ko'rsatdi. Qishloq kambag'allari uchun soliqlar majburiyatini kamaytirdi, qishloq jamoalari huquqini yengillashtirdi. U fuqarolardan qurollarini tortib olib, o'z hokimiyatini mustahkamladi, fuqarolar daromadiga soliq joriy qildi, bu o'rta hol dehqonlarni og'ir ahvolga solib qo'ydi [Rajabov R. 2009. 261-b.].

Pisistrat o'zi boshqargan tuzumni aholining turli qatlamlari dehqonlar, savdogar-hunarmandlar toifasi, zodagonlarning bir qismining ehtiyojlarini ta'minlaydigan jamiyat sifatida ko'rsatishni istardi. Pisistrat dehqonlarga g'amxo'rlik qilib, ularga dehqonchilik ishlari uchun qulay foizli qarzlarni taqdim etadi. Dehqonlarni qishloq xo'jalik ishlaridan chalg'itmagan holda yuzaga kelgan bahslarni hal qilish uchun sayyor sudlar tashkil qildi. Pisistrat og'ir ishlar o'rniga o'zining g'aznasiga hosilning 10 %i miqdorida soliq joriy qildi. Uning davrida Afinada keng qurilish ishlari



boshlanadi: Akropolda Afina ibodatxonasi, Zevs va Apollon ibodatxonalarini qurilishi boshlanadi. Shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun vodoprovod olib kelinadi. Pisistrat Egey havzasida faol siyosat olib boradi, dengiz savdosini kengaytiradi. Bu esa kemasozlikni rivojlanishiga olib keladi. Pisistrat davriga kelib mashhur ko'zalardagi qora rang nisbatan ko'rkamroq bo'lgan qizil rangga o'zgaradi. Bu esa kulolchilik ishlab chiqarishiga katta turtki beradi. Keramika - kulollar mavzesida yangi ustaxonalar ochiladi [Kenjayev E. 2007. 528-b.].

Pisistrat tiranlik martabasiga minib olgach, Solon qonunlarini bekor qilmagan, balki Solon o'z vaqtida boshlab bergan sotsial-iqtisodiy va siyosiy reformalarni davom ettirgan. U demos martabaga ko'targan Tiran edi. Pisistratning asosiy sotsial tayanchi diakriylar, ya'ni qishloq kambag'allari edi. Pisistrat yevpatritlarning o'ziga ashaddiy dushman bo'lgan aristokrat urug'lari a'zolarining bir qism yerlarini musodara qilgan. Ehtimolki, u o'z uchastkalarini ko'paytirishga muhtoj bo'lgan Attika dehqonlarining bir qismiga shu yerlarni ulush qilib bergan bo'lishi ham mumkin. Pisistratning davlat yo'li bilan uzoq muddatli kredit berishni joriy qilishdan iborat eng asosiy tadbiri ko'p dehqonlarning ahvolini yengillashtirgan va ularning xo'jaliklarini mustahkamlashga ko'maklashgan. Bundan tashqari u ayrim kambag'al xo'jaliklarni asbob-uskuna bilan ta'minlagan. U o'ndan bir miqdorda doimiy daromad solig'i joriy qilib, davlat xazinasini tartibga solgan. Uning to'qmoqchilar otryadi Tiran huzuridagi doimiy armiyaning o'zagiga aylantirilgan. Shunday qilib, Pisistrat dehqonlarning talablarini qismangina qondirgan. Diakriylardan tashqari u vaqti-vaqti bilan paraliylarga ham tayangan. Demak shahar demosining ya'ni savdogarlar bilan hunarmandlarning ham manfaatini e'tiborga olishi lozim bo'lgan [Krushkol Y. 1975. 66-b.].

Pisistrat o'ziga raqib zodagonlarning yerlarini musodara qilib ularning bir qismini kambag'al dehqonlarga bo'lib beradi. Lekin, urug' zodagonlarining aksariyat qismi o'zining boyliklarini saqlab qoladi. Ular boshqalarga ta'sir ko'rsatish bilan tiran foydasiga harakat qilishi lozim edi. Pisistrat saroyga yunon adabiyoti va san'atining yorqin namoyondalarini taklif qiladi. U ommaviy bayramlarni tashkillashtirish uchun pullarni ayamaydi. Uning davrida Afina va Dionis xudolariga bag'ishlab o'tkaziladigan bayramlar umumattika, umumdavlat miqyosiga ko'tariladi va juda tantanali o'tadi. Afina tiranlarining tashqi siyosati ham muvaffaqiyatli va keng miqyosli bo'ladi. Pisistratning asosiy maqsadi dengiz qo'ltiqlari va Qora dengizgacha olib boradigan muhim punktlar ustidan nazorat o'rnatish edi. Pisistrat





Frakiya sohillarida joylashgan Pangeyadagi boy konlarni egallashga muvaffaq bo'ladi, afinaliklar Lemnos va Imbrosga o'mashadilar. Gellespontga kirishdan uzoqda bo'lmagan Osiyo qirg'oqlaridagi Sigeyni ham bosib olinadi. U Kichik Osiyoda Dardanel bo'g'oziga chiqadigan muhim nuqtani bosib oldi [Jahon tarixi (Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi). 2020. 164-b.].

Pisistrat Afinada savdo hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadida bir qancha jamoat inshootlarni qurilishini amalga oshirdi, Akropolni bezadi, shoirlar, rassomlarga homiylik qildi. Uning farmoyishi bilan Afinada xalq qo'shiqchilari to'planib, ularning so'zlaridan Gomerning mashhur poemalari «Iliada» va Odessiya»lari yozib olindi. Pisistratning tadbirlari eski urug' zodagonlarining mavqeiga putur yetkazdi, ularning ko'p vakillari Afinadan quvg'in qilindi. Bu vaqtda kuchli fors davlati Kichik Osiyoni bosib olib, Egey dengizidan Qora dengizga boradigan yo'llarni egallab oldi. Afina dengiz savdosiga katta putur yetdi, natijada Afinaga chetdan g'alla olib kelish vaqtinchalik uzilib qolib, oziq-ovqat mahsulotlari qimmatlashdi. Tabiiyki, bu aholini noroziligini keltirib chiqardi [History-thema.com. <https://history-thema.com.tiraniya-pisistrate-int.sayt/>].

Pisistratning tashqi siyosati Afinaning rivojlanishi va mustahkamlanishiga, uning butun Qadimgi Elladadagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hukmdorligini mustahkamlashga yordam berdi. Faol tashqi siyosat faoliyati hukmdorning Egey dengizining shimoliy sohilidagi shaxsiy mulkidan olgan moliyaviy resurslarni talab qildi. Kumushga boy konlar mavjud bo'lib, bu Pisistratga soliqlarni oshirmasdan, uning sa'y-harakatlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga imkon berdi [Proshloe-исторический журнал. <https://proshloe.com.tiraniya-pisistrata-inter.sayti/>].

Tiraniyaning qulashi. Pisistrat hokimiyati yetarlicha mustahkam bo'lmagan. Dushmanlari uni ikki marta Afinadan haydaganlar. Odatda bular Pisistratning diakriylarga muttasilroq tayanishidan norozi bo'lgan pediylar va ularda vaqtincha qo'shilgan paraliylar edilar. Lekin Pisistrat Afinaga hokimlik qilishni yana qaytadan qo'lga olishga muvaffaq bo'lgan. Ikkinchi quvg'indan keyin qaytib kelgach, u o'z hokimligining uchinchi davrida tobora kuchayib borayotgan paraliylarga katta e'tibor bergan va eramizdan avvalgi 527-yilda vafot etganiga qadar hokimiyat tepasida saqlanibgina qolmasdan, balki hokimiyatni o'z o'g'illari Gippey va Gippax Pisistratlarga topshirishga ham muvaffaq bo'lgan. Ammo tiraniya davri, ya'ni aristokratiya hokimiyatida quldorlik demokratiyasiga yoki quldorlik oligarxiyasiga o'tish davri oxiriga yetgan edi. Yevpatritlarning kuchiga ancha putur



yetkazilgan edi. Tiraniya davrida kuchayib ketgan shahar demosi siyosiy tajriba orttirgan edi va qishloq demosi bilan shahar demosi o'rtasida yurgan, buning o'rniga aristokratlar homiyligidan qutulgan grajdanlarning siyosiy huquqlarini cheklab kelgan tiraniyaga endi muhtoj emas edi [Krushkol Y. 1975. 67-b.]

Pisistratning o'gillari Gippiy va Gippaxlar hokimiyat tepasiga kelgach, ular hokimiyatni o'z qo'llarida tutib tura olmadilar. Mil. avv. 514 -yili fitna natijasida Gippax o'ldiriladi, Gippiy bo'lsa umumiy norozilikni keltirib chiqargan shafqatsiz rejimni kuchaytiradi. Afinaning tashqi siyosiy holati ham yomonlashadi. Ulkan Ahmoniylar imperiyasi Kichik Osiyodagi barcha yunon shaharlari va Egey havzasidagi orollarning katta qismini bosib oladi. Afinaliklar Frakiya Xersonesidan ketishga majbur bo'ladilar. Pisistratlar tashqi siyosatdagi muvaffaqiyatsizliklaridan raqib alkmeonidlar foydalanib, kuch yig'ishni boshladilar va Afinadagi tiraniyaga qarshi chiqadilar. Ular Delfiya shahri va Spartani o'z tarafiga og'dirib oladilar. Sparta podshosi Kleomen kuchli qo'shin bilan Attikaga bostirib kiradi va himoyalangan Akropolni qamal qiladi. Har qanday yordamdan mahrum bo'lgan Gippiy taslim bo'ladi va Eronga qochib ketadi. Mil. avv. 510 -yilda Afinada tiraniya qulaydi. Pisistrat va uning o'g'illarining tiraniyasi kam davom etgan bo'lsa ham Afinaning rivojida muhim o'rin tutadi. Garchi tiranlar ma'lum darajada o'z manfaatlarini o'ylab ish tutgan bo'lsalarda, ularning siyosati aholining keng qatlamlari tomonidan iliq qarshi olindi. U Afina jamiyatining iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy tinchligi, iqtisodiy va madaniy rivojiga sabab bo'lgan edi [Jahon tarixi ( Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi).2020].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Pisistratning Afinani o'z ichiga olgan Gretsiyaning uchburchak yarim oroli bo'lgan Attikani birlashtirishi iqtisodiy va madaniy yuksalishlar bilan birga Afinaning keyinchalik qadimgi Yunonistonda ustunligi uchun zamin yaratdi. Pisistrat Afinaning qashshoq aholisi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Dehqon va hunarmandlarning manfaatlarini himoya qildi, shaharda ulkan qurilish ishlarini olib bordi, savdo-hunarmandchilikni rivojlantirdi. Afina dengiz savdosida ham ulkan yutuqqa erishdi. Tashqi siyosatda ham siyosiy va madaniy hukmronligini mustahkamladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Rajabov R. R. Qadimgi dunyo tarixi (Sharq, Yunoniston, Rim). Toshkent 2009.
- 2.Qadimgi dunyo tarixi. o'quv qo'llanma. Toshkent 2019.



3. Jahon tarixi ( Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim tarixi). o‘quv qo‘llanma. Tayyorlovchilar - D.Urakov, R.Tursunov, A.Biykuziyev, B.Xaynazarov. Toshkent 2020.

4. Kenjayev E. Qadimgi dunyo tarixi ( Sharq, Yunoniston, Rim). Namangan 2007.

5. Krushkol Y.S. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 1975.

6. History-thema.com. <https://history-thema.com.tiraniya-pisistrate> internet sayti

7. Proshloe-исторический журнал. <https://proshloe.com.tiraniya-pisistrata> internet sayti.

